



## OYBEKNING "QUTLUG' QON" ROMANIDA YURTGA SADOQAT TUYG'ULARINING TASVIRI

Hakimov Shavkat Davlat o'g'li

Toshkent farmatsevtika instituti

Farmatsiya fakulteti Kasbiy ta'lim

yo'nalishi 3 kurs 301 A guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5815465>

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 25-dekabr 2021

Ma'qullandi: 25 - dekabr 2021

Chop etildi: 30 - dekabr 2021

### KALIT SO'ZLAR

Xalq, kurash, ozodlik,  
mardlik, vafodorlik,  
ajdodlar, ayol, qismat,  
iztirob.

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada tariximiz, milliy qadriyatlarimiz, ulug' siymolar hayoti, o'zbek xalqi ozodlik va milliy mustaqillik yo'lidagi fidokorona hatti-harakatlari bayon etilgan. Shuningdek, Musa Toshmuhammad o'g'li Oybekning "Qutlug' qon" romani yaratilishi, undagi obrazlar xarakteri, milliy qadriyatlarimiz ruhida tarbiyalangan, kamol topgan o'zbek ayollarining hayot tarzi, orzu-xavaslarini, qismat chizgilaridagi hayot tarzi bayon etilgan va tahlilga tortilgan*

Tabiyki, har qanday avlod vakillari ma'lum bir jihatlari bilan bir-birlaridan farq qiladi. Bunda taraqqiyotning, rivojlanishning ta'siri katta. Shunday bo'lsada, avlodlarga ajdodlardan meros bo'lib qolgan, asrlardan asrlarga o'tib kelayotgan yaxshi an'analar, urf-odatlar, umrboqiy qadriyatlardan uzilib yashay olmaydi. Ajdodlarimiz orzu qilgan kunlarni ko'rish, chin ma'nodagi musaffo havodan nafas olish, ozodlik, erkinlik singari baxtli lahzalarni ko'rmoqlik baxti aynan bizga nasib etdi.

Biz yashayotgan tabarruk zamin bag'rida necha-necha buyuk insonlar xayot kechirganlar. Ilmu-ma'rifat, adabiyot va san'atda, jasoratda tengsiz, yuksak insoniy fazilatlarini bilan ibrat bo'la oladigan nomlari abadiyatga muhrlangan buyuk

yurtdoshlarimiz juda ko'p. Ular aynan bizning yurtimizda, biz qadam bosayotgan mana shu zaminda kamol topganlar, o'sib ulg'ayganlar, dunyo ilm-faniga va taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shganlar. Tariximiz, milliy qadriyatlarimiz, ulug' siymolar hayotini o'rganishning asl maqsadi ham ularga ergashish, yuksak insoniy fazilatlarini misolida hayotiy e'tiqodimizni shakllantirishi uchun ibratli jihatlarni olishdir.

Mustaqillik azaldan insoniyatning orzu-umidlari, armon va iztiroblarini o'zida mujassam etgan. Tarixdan ma'lumki O'zbek xalqi erk uchun, ozodlik uchun va milliy mustaqillik uchun kurashga moyilligi, ota - bobolarimiz udumlariga sodiqligi, bosqinchi mustamlakachilarga nisbatan cheksiz nafrat, tiz cho'kib, bo'yin egib va qul bo'lib yashashdan ko'ra, tik turib kurashib



jang maydonida mardonavor o'limni afzal ko'rishgan. Buni Musa Toshmuhamman o'g'li Oybekning "Qutlug' qon" romanida ham ko'rishingiz mumkin. Oybek romanni 1937 – yillarda yoza boshlagan. 1940 – yilda esa chop etilgan.'

Adibning "Qutlug' qon" romani badiiy jihatdan yetuk, mukammal bo'lgan asar sanaladi. Unda haqiqiy o'zbek xalqining insonparvarligi, soddadil, mehnatkash xalqning orzu-umidlari, intilishlari, xasratlari-yu, iztiroblari bayon etilgan. Shuningdek, asar o'zbek xalqining 1917 – yil to'ntarish arafasidagi og'ir hayoti, ozodlik yo'lida olib borgan kurashlari keng tasvirlangan.

Asarning bosh qahramoni Yo'lchi – soddadil, halol, vijdonli, samimiy, mard, chidamli, sabr bardoshli, haq talab, qishloq yigiti edi. U shaharga ish qidirib tog'asi Mirzakarimboynikiga boradi va o'sha xonadonda xizmatkor bo'lib ishlaydi. Yo'lchi o'sha xonadonda Yormat ismli xizmatkorning qizi Gulnorni uchratib qoladi va uni yoqtirib qoladi.

Asarda o'sha davr xotin-qizlarning qismati, iztiroblari, orzu-umidlari, intilishlarini adib mahorat bilan ta'rif etadi. Ayol nafaqat jahon adabiyotida, balki, uning bir qismi bo'lgan o'zbek adabiyotida ham davrning oq va qora sahifalarini, pok insoniy tuyg'ularni, sevgi va sadoqatni, go'zalliku vafodorlikni moziydan to hozirga qadar turli poetik timsollarda tasvirlab kelmoqda. Xususan, XX asrning birinchi yarmida yashab ijod qilgan A.Fitrat, A.Qodiriy, Cho'lpon, H.H.Niyoziy, Oybek asarlarida ayol davr fojialarini, odam tiynatiga xos xislatlarni, ayniqsa, ma'naviy inqiroz fonida manfiy kuchlar – zolim xonlar, badnafs mingboshiyu eshonlarning chirkin qiyofasini ochishda muhim rol

o'ynaganligi ma'lum.

Sobiq sho'rolar davrida ayollar ko'proq ishchi kuchi, "baxtli turmush" egasi sifatida tasvirlangan. Shuningdek, o'zbek romanlarida sho'ro davri hayot tarzini qayta badiiy "taftish" qildi, "mehnat qahramon"lari bo'lgan ayollar obrazi fojiviy qahramon darajasiga ko'tarib yaratdi.

Yozuvchi "baxtli turmush"ni kuylagan qahramonlarning ijtimoiylashuvini, ijtimoiylashuvi natijasida topgan fojialarini, ruhiy kechinmalarini, turmush qiyinchiliklarini qayta gavdalantirdi. Gulnor obrazi ham mana shunday timsollarni o'zida muzajjas eta oldi va yozuvchi o'sha davr ayollarining hayot tarzini, iztiroblarini mahorat bilan yoritib berdi. Asarda Gulnor obrazi shunday ta'riflanadi: **"Nozik, nafis, ma'sum bir qiz. Bo'yi yoshiga qaraganda balandroq, bolalarcha kulimsiragan va yuqoridan tobo mayin ingichkalashganoq, tiniq yuzi, qalam bilan chizilgandek ingichka, ma'nodor qoshlari, uzun, quyuyq kipriklar orasida yongan yirik qora ko'zlari bor edi"**.

Bu ko'zlarda, nigohlarda samimiylik, oliyjanoblik, ko'ngilning bahoriy tozaligi, iliqdigi va qandaydir, parishon xayolchanlik jilvalanar edi. Lekin Gulorning erki o'zida emas. Garchi u Yo'lchini sevsada otasining qistovi bilan Mirzakarimboyga turmushga chiqadi. Unga molu davlatni qizig'i bo'lmasada boyning yaqinlari uni chiqishtirishmaydi. Gulnor o'zini doim yolg'iz his qiladi, faqat Unsinni o'ziga yaqin oladi. Unsin va Gulnor opa singildek yaqin edilar. Gulorning taqdiri fojea bilan yakunlanadi. Boyning yaqinlari Gulnorni zaharlab o'ldirishadi.



Unsin - Yo'lchining singlisi. O'n besh, o'n olti yoshlar orasida, qoramtir, toza yuzli, sho'x, jingalak sochli, bo'ychan sodda samimiy qiz edi. U ham hamma qatori davr qiyinchiliklarini boshidan o'tkazdi. Onasidan erta ayrilib akasi bilan birga shaharga borishga majbur bo'ldi, akasi singari u ham boyning xonadonida xizmatkor bo'ladi. Boyning kelinlari unga ko'p o'gir ishlar buyurishar edi lekin u mehnatdan qochmas aksincha boyning o'g'illaridan qochar edi. Boyning xonadonida uning yagona darddoshi Gulnor edi.

Asarda Shokir ota ismli oltmish besh yoshlardagi, eti suyakka yopishgan, chuvak yuzi va peshonasi chuqur chiziqdalar - burushliqlar bilan quyuq qoplangan kam soqol keksa bir mahsido'z chol edi. Uning Tohirjon ismli yakkayu yolg'zi o'g'li sil kasalidan erta vafot etgan. Shokir ota nevaralarining yolg'iz boquvchisi edi. U Yo'lchini o'z o'g'liday ko'radi. Mirzakarimboyning o'g'illari Unsinga yomon ko'z bilan qaraganliklaridan so'ng Yo'lchi singlisini Shokir otanikiga olib boradi. Shokir ota Unsinni o'z qiziday qabul qiladi. Unsin Shokir otanikida yashay boshlaydi va choldan mahsido'zlikni o'rganib oladi.

Mirzakarimboy obrazi insonlardagi o'ta ketgan ziqnalik, insofsiz, niyati buzuq, odamlar orasidagi eng qabix qilmishlarini o'zida jamlagan salbiy obraz sifatida namoyon bo'ladi. Kitobxon Mirzaqarimboyning shu qadar ziqnaligini asarni mutolaa qilish jarayonida amin bo'la boshlaydi. Asarda Yo'lchi tog'asining uyiga mehmon bo'lib kelganda uning oldiga nonni shu darajada maydalab ushatadiki, Yo'lchi qayta -qayta dasturxoniga qo'l uzatishga xijolat bo'lishi ta'sirli qilib ta'rif etiladi. U

hattoki nevarasi tengi bo'lgan o'z jiyanining sevgilisi Gulnorga ham uylanishdan tap tortmaydi. U moddiy yordamga muhtoj qarindoshi ya'ni Yo'lchining onasi Xushro'ybibi haqida yomon so'zlar aytadi. Yo'lchiga "odam bo'lmoqchi bo'lsang, onang zoriga quloq solma" - deb nasihat qiladi.

Asarning oxiri Yo'lchining o'limi bilan tugaydi. Unsin, sevikli akasi, yagona do'sti, hayotdan yagona umidi bo'lgan akasini quchoqlab, bor dard, alam, qayg'ularini ichiga yutib tovushsiz achchiq ko'z yosh to'kishi.

So'ng Shokir ota Unsinni chetga tortib unga otalik samimiyati bilan boshini silab taskin berishga harakat qiladi: "Qizim, jonim qizim - yig'i aralash gapirardi chol, - sen ko'p o'rtanma. Yo'lchining o'limi ancha - muncha o'lim emas. Bu juda kata o'lim. Akang Yo'lchi nima uchun, kim uchun qon to'kdi? O'zi uchun ems, xalq uchun, yurt uchun, jamiki alamzadalar, alamdiydalar uchun qon to'kdi. Bu qon eng qutlug', eng muborak, eng sof qon... bunga gumonim yo'q. Qizim, akang mard yigit edi, nomusli yigit edi. Nomus bilan, mardlik bilan o'ldi. U zulm ildiziga bolta urdi. Inshoollo, zulm daraxti quriydi. Yo'lchining qoni behuda ketmaydi, sira behuda ketmaydi. Bu hikmatli qon, qutlug' qon. Unda sir ko'p", - deya Unsinga tasalli beradi.

Haqiqatda Yo'lchi singari o'zbek yigitlarining vatanga, yurtga bo'lgan sadoqati, mehr-muhabbati o'zgacha. Ular yurt ozodligini, erkini afzal bilguvchi mehnatkash inson edi. Yo'lchi obrazi orqali mehnatkash, oq ko'ngil, o'zgalar dardiga malham bo'lguvchi, insonparvarlikni o'ziga shior qilgan o'zbek xalqi timsoli yaratilgan. Turli nohaqliklarning qurboni bo'lgani Yo'lchi obrazini mahorat bilan ta'rif etgan



adib yuksak iste'dod egai bo'lganidan dalolatdir.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, yosh avlodga zamonaviy talablar asosida bilim berish, ularda Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'ularini tarbiyalashda ajdodlarimiz meroslaridan, badiiy adabiyotdan keng foylanish muhim sanaladi. Yoshlar o'rtasida vatanga muhabbat, yurtga sadoqat tuyg'ularining kamol topishida badiiy

asarlarning o'rni kattadir. Qolaversa, kishining kimligini u o'qigan kitoblarga qarab aniqlash mumkin bo'lganidek har bir xalq har bir millatning madaniyat darajasi, ma'naviy boyligi sanalmish kitoblar bilan ham bog'liq. Yoshlari bilimli, yuksak tafakkurli yurtning kelajagi buyuk bo'lishi aniq. Bu yo'lda badiiy asarlarning ta'siri, o'rni beqiyos. Buni his qilib yashayotgan kishilar millat faxriga aylanishi muqarrar

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Oybek. "Qutlug' qon". G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uy. Toshkent – 2019.
2. Karim B. "Ruhiyat alifbosi". G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uy. Toshkent – 2018.
3. Ziyonet.